



YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2024-yil 2-son

VOLUME 4 / ISSUE 2 / 2024

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.4.2.



Crossref
Content
Registration

ISSN: 2181-1938

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence

MUNDARIJA

12.00.01 – DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASI VA TARIXI. HUQUQIY TA'LIMOTLAR TARIXI

5 **MUXITDINOVA FIRYUZA ABDURASHIDOVNA**

Xotin-qizlarni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilishning ayrim nazariy-huquqiy masalalari

14 **AMIROV SANJAR ILYOS O'G'LI**

Afini demokratiyasining evolyutsiyasi va ta'siri: tarixiy-qiyosiy yondashuv

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ. MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

26 **NORMATOV BEKZOD AKRAM O'G'LI**

O'zbekistonda soliq tekshiruvi vazifalari va prinsiplari hamda qonunchilikning rivojlanish tendensiyalari

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI. TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA HUQUQI. XALQARO XUSUSIY HUQUQ

39 **MELIYEV XUDOYOR XURRAMOVICH**

Yuridik shaxslarning jinoiy va ma'muriy javobgarligi

45 **SAIDOV MAKSUDBEK NORBOYEVICH**

Mas'uliyati cheklangan jamiyat ishtirokchisining vafot etishi munosabati bilan vujudga keladigan fuqarolik (korporativ) huquqiy oqibatlar

56 **MAMANAZAROV SARDOR SHUHRATOVICH**

Big Data sohasida sun'iy intellektning huquq va majburiyatlari: muammolar va yechimlar

67 **AKRAMOV AKMALJON ANVARJON O'G'LI**

O'zbekistonda raqamli meros va uning huquqiy muammolari

12.00.06 – TABIIY RESURLAR
HUQUQI. AGRAR HUQUQ.
EKOLOGIK HUQUQ

- 85 ХАЛМУМИНОВ ЖУМАНАЗАР
ТАШТЕМИРОВИЧ**
Современное состояние энергетического
законодательства Республики Узбекистан и
правовые вопросы его совершенствования

12.00.09 – JINOYAT PROTSESSI.
KRIMINALISTIKA,
TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA
SUD EKSPERTIZASI

- 89 КОМИЛЖОНОВ САРВАР ШУХРАТ УГЛИ**
Правовой статус и полномочия участников и
субъектов доследственной проверки

12.00.10 – XALQARO HUQUQ

- 102 GULYAMOV SAID SAIDAXROROVICH,
ABDIXAKIMOV ISLOMBEK BAHODIR O'G'LI**
Kvant tahdidi: kvant hisoblashning xalqaro
kiberxavfsizlikka ta'sirini va yangi huquqiy
bazalarga shoshilinch ehtiyojni o'rganish

- 113 ОКЮЛОВ ОМОНБОЙ,
КАРАХОДЖАЕВА ДИЛОРОМ МАМИРОВНА**
Уникальный научный консорциум
учёных, юристов, цивилистов

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.4.2./YINV4439>
UDC: 336.221.2(045)(575.1)

O'ZBEKISTONDA SOLIQ TEKSHIRUVI VAZIFALARI VA PRINSIPLARI HAMDA QONUNCHILIKNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Normatov Bekzod Akram o'g'li,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik fakulteti
dekan o'rinbosari,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)
ORCID: 0000-0002-1306-9272
e-mail: b.normatov@tsul.uz

Annotatsiya. Maqolada soliq tekshiruvi institutiga oid kategoriyalar, xususan, soliq tekshiruvi vazifasi va prinsiplari tahlil qilingan. Tadqiqotdan maqsad o'rganish natijasida soliq tekshiruvi mohiyatini ochib berishga qaratilgan taklif va xulosalar ishlab chiqishdan iborat. Soliq organlari soliq to'lovchilarning faoliyatiga noqonuniy aralashishlarining oldini olish maqsadida soliq qonunchiligida soliq tekshiruvlari vazifa va prinsiplarining huquqiy asoslarini aniq belgilash talab qilinadi. Soliq tekshiruvining vazifalari soliq organlarining vazifa va funksiyalaridan kelib chiqadi. Bu yerda asosiy masala to'lovlarni soliq to'lovchilarning ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmagan holda davlat budjetiga undirishdir. Maqolada ushbu masalalar milliy va xorijiy davlatlar qonunchiligi asosida qiyosiy-huquqiy tahlil qilingan, milliy qonunchilikdagi soliq tekshiruvi vazifalari, prinsiplari o'rganilib, qonunchilikni rivojlantirishga doir takliflar ishlab chiqilgan. Mazkur takliflar ilmiy faoliyatda, qonun ijodkorligida, qonunni qo'llash amaliyotida, soliq qonunchiligi normalarini sharhlashda, milliy qonunchilikni takomillashtirishda qo'llanadi. Tekshiruvlarda soliq organlari va soliq to'lovchilar o'rtasidagi munosabatlarda huquq va majburiyatlarni aniq belgilash hamda bosh qoidalar – prinsiplarni mustahkamlash dolzarb hisoblanadi.

Kalit so'zlar: soliq tekshiruvi, soliqlar, soliq tekshiruvi vazifasi, soliq tekshiruvi prinsiplari, soliq qonunchiligi, soliq organlari.

ЗАДАЧИ И ПРИНЦИПЫ НАЛОГОВОЙ ПРОВЕРКИ И ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ

Норматов Бекзод Акрам угли,
доктор философии по юридическим наукам (PhD),
заместитель декана факультета международного права
и сравнительного правоведения
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В данной статье автор проанализировал категории, относящиеся к институту налоговой проверки, в частности её задачи и принципы. Целью данного исследования является разработка выводов и предложений, направленных на раскрытие сущности налоговой проверки в результате исследования. Для недопущения незаконного вмешательства налоговых органов в деятельность налогоплательщиков актуально чёткое определение в налоговом законодательстве правовых основ задач и принципов проведения

налоговых проверок. Задачи налоговой проверки вытекают из задач и функций налоговых органов, и здесь основным вопросом становится обеспечение платежей в бюджет государства без негативного влияния на моральный дух налогоплательщиков. Проведён сравнительно-правовой анализ национального и зарубежного законодательства и разработаны предложения по совершенствованию задач, принципов и в целом национального законодательства о налоговой проверке. Данные предложения могут использоваться в научной деятельности, законотворчестве, правоприменительной практике, толковании норм налогового законодательства, совершенствовании национального законодательства. В ходе этих проверок актуальными являются определение прав и обязанностей в отношениях между налоговыми органами и налогоплательщиками, а также закрепление основных принципов.

Ключевые слова: налоговая проверка, налоги, задача налоговой проверки, принципы налоговой проверки, налоговое законодательство, налоговые органы.

OBJECTIVES AND PRINCIPLES OF TAX AUDIT IN UZBEKISTAN AND TRENDS IN THE DEVELOPMENT OF LEGISLATION

Normatov Bekzod Akram ugli,

Deputy dean of the Faculty of International Law and Comparative Law,
Doctor of Philosophy in Legal Sciences (PhD)

Abstract. In this article, the author analyzed the categories related to the institute of tax audit, in particular the objectives and principles of tax audit. The purpose of this study is to develop proposals and conclusions aimed at revealing the essence of the tax audit as a result of the study. In order to prevent the illegal interference of tax authorities in the activities of taxpayers, it is relevant to clearly define in the tax legislation the legal foundations of the tasks and principles of conducting tax audits. The tasks of the tax audit follow the objectives and functions of the tax authorities, and the main issue is to ensure payments to the state budget without negatively affecting the morale of taxpayers. A comparative legal analysis of the legislation of national and foreign states has been carried out, and proposals have been developed on the task, principles, and development of legislation on tax audit in national legislation. These proposals are used in scientific activities, lawmaking, law enforcement practice, interpretation of tax legislation, and improvement of national legislation. During these inspections, it is relevant to clearly define the rights and obligations in the relationship between tax authorities and taxpayers, as well as to consolidate the basic principles.

Keywords: tax audit, taxes, the objective of tax audit, principles of tax audit, tax legislation, tax authorities.

Kirish

Mamlakatimizda soliq tekshiruvlariga oid qonunchilik tizimi soliq va soliq ma'muriyatchiligiga doir qonun hujjatlari tizimi asosida shakllangan. Zero, soliq tekshiruvlari soliq huquqining asosiy institutlaridan biri hisoblanadi. Soliq huquqining dastlabki konseptual asoslari 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan.

Soliq tekshiruvlarining alohida institut sifatida rivojlanganini hisobga olib, soliq tekshiruvlari to'g'risidagi qonunchilikning rivoj-

lanish bosqichlarini quyidagicha tasniflash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Birinchi bosqich (1990–1994), ikkinchi bosqich (1994–1997), uchinchi bosqich (1997–2007), to'rtinchi bosqich (2007–2016), beshinchi bosqich (2016–2019) va oltinchi bosqich (2019-yildan hozirga qadar).

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-iyuldagi "Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3802-sonli qaroriga ko'ra, soliq ma'muriyatchiligi tizimini takomillashtirishning eng muhim

yo'nalishlari sifatida quyidagilar belgilandi: birinchidan, soliq organlarini soliq to'lovchilarning biznes-hamkori va maslahatchisi sifatidagi yangi imijini yaratish; ikkinchidan, soliq to'lovchilar o'z soliq majburiyatlarini ixtiyoriy bajarishi, biznesni qonuniy va qulay yuritish uchun qulay sharoit yaratish; uchinchidan, soliq nazoratining mutlaqo yangi tizimini yaratish; to'rtinchidan, soliq to'lovlarining o'z vaqtida va bir xildagi tushumini ta'minlash orqali budjetlarning daromad qismini barqarorlashtirish.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 17-apreldagi 320-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi to'g'risida"gi nizomga ko'ra, Davlat soliq qo'mitasining asosiy vazifalari sifatida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarining to'g'ri hisoblab chiqarilishi, to'liq hamda o'z vaqtida to'lanishi yuzasidan nazoratni ta'minlash hamda davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalariga soliqlarning o'z vaqtida, bir xildagi tushumini ta'minlash nazarda tutilgan.

Fikrimizcha, soliq organlarining asosiy vazifasi soliqlarning o'z vaqtida davlat budjetiga tushishini ta'minlash bo'lib, bu soha xodimlarining funksional majburiyati ham hisoblanadi. Shu sababli soliq organlari o'z vazifalarini bajarish uchun soliq tekshiruvi shaklidan asosiy yuridik instrument sifatida foydalanadi.

Soliq huquqi institutlari tadqiqot obyekti sifatida ko'pgina xorijiy olimlar tomonidan, xususan, David John Hoey, Martine Meunier, Lidija Hauptman, Miodrag Todorovic, Edmund Biber, Satoru Araki, Appelgren Leif, Arturo Jacobs, Rosemarie A. Rhines, Marhaini Mahmood, Csilla Tamás Czinege, Rafal Lipniewicz tomonidan o'rganilgan. O'zbekiston Respublikasida soliq siyosatini takomillashtirish masalalaridan kelib chiqqan holda, soliq tekshiruvlari vazifalari va prinsiplarini alohida tadqiqot obyekti sifatida tadqiq qilish lozim bo'ladi.

Material va metodlar

Mazkur maqolada O'zbekistonda soliq tekshiruvlarining tashkiliy-huquqiy asoslarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar, huquqni qo'llash amaliyoti, xorijiy mamlakatlar qonunchiligi va amaliyoti hamda soliq huquqida mavjud bo'lgan konseptual yondashuvlar, ilmiy-nazariy qarashlar va huquqiy kategoriyalar tadqiqot obyekti sifatida olindi.

Tadqiqotni olib borishda tarixiy, tizimli-tuzilmaviy, qiyosiy-huquqiy, mantiqiy, sotsiologik, ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etish, induksiya, deduksiya va statistik ma'lumotlar tahlili kabi usullar qo'llandi.

Tadqiqot natijalari

Soliq qonunchiligi rivojlanish dinamikasi o'ziga xos davrlarni qamrab oladi. Har bir davrda soliq tekshiruvlariga oid kategoriyalar shakllangan va rivojlangan.

Birinchi bosqich – 1990–1994-yillar. Ushbu davrda soliq tekshiruvlarini o'tkazishning fundamental huquqiy asoslari belgilandi. Xususan, 1990-yil 17-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining "Moliya vazirligi huzuridagi Davlat bosh moliya-soliq boshqarmasini tashkil etish to'g'risida"gi 383-sonli qarori qabul qilindi. Respublika Oliy Kengashi 1991-yil 14-iyunda "O'zbekiston Respublikasi soliq organlari to'g'risida"gi nizomni tasdiqladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining 1991-yil 12-avgustdagi "O'zbekiston davlat soliq organlari to'g'risida"gi 217-sonli qaroriga asosan Moliya vazirligi huzuridagi Bosh davlat moliya-soliq boshqarmasi negizida Vazirlar Mahkamasi huzurida Bosh davlat soliq boshqarmasi tashkil etildi. Shu bilan birga, viloyatlarda soliq boshqarmalari va tumanlarda soliq inspeksiyalari tashkil etildi. Natijada 1991-yil 12-avgustdan soliq organlarining mustaqil davlat soliq xizmati sifatidagi faoliyati boshlandi.

Shundan so'ng har bir soliq turi bo'yicha alohida qonunlar qabul qilindi, xususan,

O'zbekiston Respublikasining 1991-yil 15-fevraldagi "Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan olinadigan soliqlar to'g'risida"gi Qonuni, 1991-yil 15-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi fuqarolaridan, ajnabiy fuqarolardan va fuqaroligi bo'lmagan shaxslardan olinadigan daromad solig'i to'g'risida"gi Qonuni, 1992-yil 9-dekabrda "Transport vositalari hamda boshqa o'ziyurar mashina va mexanizmlar egalaridan olinadigan soliq to'g'risida"gi Qonuni, 1993-yil 6-maydagi "Yer solig'i to'g'risida"gi Qonuni, 1993-yil 7-maydagi "Mahalliy soliqlar va yig'imlar to'g'risida"gi Qonuni va 1993-yil 28-dekabrda "Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqlar to'g'risida"gi Qonunlari shular jumlasidandir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1993-yil 10-dekabrda "Savdo va xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarida tekshirishlarni tartibga solish to'g'risida"gi PF-696-sonli Farmoniga asosan mulkchilik shaklidan qat'i nazar, savdo va xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarining faoliyati faqat Vazirlar Mahkamasining huzuridagi Bosh davlat soliq boshqarmasi hamda uning hududiy bo'linmalari tomonidan Moliya vazirligining moliya va taftish organlari ishtirokida amaldagi qonunlarga muvofiq tekshirilishi belgilandi. Shundan kelib chiqib, Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 11-fevraldagi 67-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Savdo va xizmat ko'rsatish sohasi korxonalari faoliyatini har jihatdan tekshirishlarni o'zaro muvofiqlashtirish tartibi to'g'risida"gi nizom qabul qilindi. Ushbu nizomga ko'ra, savdo va xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarini tekshirish soliq organlari boshliqlari tomonidan tasdiqlangan reja asosida moliya organlari ishtirokida amalga oshirilishi; reja tashqari tekshirishlar organlar, mansabdor shaxslarning rasmiy xabarlar, fuqarolarning arizalariga ko'ra amalga oshirilishi belgilandi. Ushbu davrda O'zbekiston Respublikasida korxonalar faoliyatini tekshirishga vakolatli davlat organlari tizimi hamda soliq

tekshiruvlarining dastlabki huquqiy asoslari shakllandi.

Ikkinchi bosqich – 1994–1997-yillar. Ushbu davrda soliq tekshiruvlarini o'tkazishga vakolatli organning tashkiliy-huquqiy shakllari takomillashtirildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994-yil 18-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasining Davlat soliq bosh boshqarmasini O'zbekiston Respublikasining Davlat soliq qo'mitasiga aylantirish to'g'risida"gi PF-744-sonli Farmoniga ko'ra, Davlat soliq qo'mitasi tashkil etildi, Davlat bojxona qo'mitasi esa Bosh bojxona boshqarmasiga aylantirilib, Davlat soliq qo'mitasi tarkibiga kiritildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 4-martdagi 114-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Davlat soliq qo'mitasi to'g'risida"gi nizomga ko'ra, Davlat soliq qo'mitasining bosh vazifasi sifatida davlat soliqlari, tushumlar, bojlar va boshqa majburiy to'lovlarning o'z vaqtida to'liq hamda to'g'ri hisoblab chiqilishi, to'lanishi ustidan nazoratni amalga oshirish; yuridik va jismoniy shaxslarning moliya-xo'jalik faoliyatlarini tekshirish va taftish qilishni muvofiqlashtirish belgilandi.

Tekshirishlarni muvofiqlashtirish maqsadida 1996-yil 8-avgustda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tekshirishlarni tartibga solish va nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtirishni takomillashtirish to'g'risida"gi PF-1503-sonli Farmoni qabul qilindi. Ushbu farmonga ko'ra, xo'jalik yurituvchi subyektlar – yuridik va jismoniy shaxslarning moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish hamda taftish etishga doir barcha ishlarni muvofiqlashtirish vazifasi Davlat soliq qo'mitasi zimmasiga yuklandi hamda nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Respublika kengashi tuzildi. Shuningdek, mulkchilik shaklidan qat'i nazar, xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliya-xo'jalik faoliyati respublika kengashi bilan kelishilgan holdagina o'tkazilishi belgilandi. Ushbu davrda Davlat soliq qo'mitasi alohida

davlat organi sifatida takomillashtirildi hamda tekshirishlarni muvofiqlashtirish uchun alohida kengash tashkil etildi.

Uchinchi bosqich – 1997–2007-yillar. Ushbu davrda 1997-yil 24-aprelda soliq qonun hujjatlarini o'zida jamlagan Soliq kodeksi qabul qilindi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil 8-iyuldagi "Davlat bojxona qo'mitasini tashkil etish to'g'risida"gi PF-1815-sonli Farmoniga asosan, Davlat soliq qo'mitasi Bosh bojxona boshqarmasining negizida Davlat bojxona qo'mitasi tashkil qilindi. Shu munosabat bilan, 1997-yil 29-avgustda "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi 474-I-sonli Qonun qabul qilindi. Ushbu qonunga ko'ra, soliq nazorati – soliqqa tortiladigan subyektlar va obyektlarni hisobga olish hamda soliq qonunchiligiga rioya etilishini nazorat qilishning yagona tizimidan iboratligi qayd etildi, shuningdek, soliq nazorati soliq organlari tomonidan soliq to'lovchi subyektlar va obyektlarni hisobga olish, soliqlarga doir tekshiruvlar o'tkazish hamda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa shakllarda amalga oshirilishi belgilandi.

1998-yil 24-dekabrda O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to'g'risida"gi 717-I-sonli Qonuni qabul qilindi. Ushbu qonunda tekshirish – xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan qonun hujjatlari qanday bajarilayotganligini nazorat qiluvchi organlarning bir marta nazorat qilishi ekanligi; taftish – moliya va soliq qonunchiligiga rioya etilishi, soliq, davlat statistika organlariga hamda banklarga taqdim etiladigan hisobga olish va hisobot ishlarining to'g'riligi ustidan nazoratni amalga oshirish bo'yicha buxgalteriya, moliya hamda boshqa hujjatlarni tekshirish ekanligi; muqobil tekshirish – operatsiyalar birligi tufayli o'zaro bog'liq bo'lgan va turli xo'jalik yurituvchi subyektlardagi yoki bir xo'jalik yurituvchi subyektning turli bo'linmalaridagi hujjatlarni taqqoslashdan iborat tekshiruv ekanligi; nazorat

tartibida tekshirish – xo'jalik yurituvchi subyektlarning ilgari tekshirishda ko'rsatilgan qoidabuzarliklarni bartaraf etishi ustidan nazorat qiluvchi organlar tomonidan amalga oshiriladigan tekshirish ekanligi asosiy tushunchalar sifatida mustahkamlandi. Ushbu davrda soliq tekshiruvlarining shakllari, usullari va o'tkazish muddatlari belgilandi.

To'rtinchi bosqich – 2007–2016-yillar. Ushbu davrda 2007-yil 25-dekabrda yangi tahrirdagi Soliq kodeksi qabul qilindi. Mazkur kodeksning 85-moddasida soliq tekshiruv – soliq organlari va prokuratura organlari tomonidan amalga oshiriladigan soliq qonunchiligi bajarilishini tekshirish ekanligi, shuningdek, soliq tekshiruv soliq to'lovchining moliya-xo'jalik faoliyati tekshiruv (taftish) va qisqa muddatli tekshiruv shaklida amalga oshirilishi; soliq to'lovchining moliya-xo'jalik faoliyati tekshiruv (taftish) soliq qonunchiligiga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish maqsadida soliq to'lovchining buxgalteriya, moliya, statistika, bank hujjatlari hamda boshqa hujjatlarini o'rganish va taqqoslash ekanligi; qisqa muddatli tekshiruv esa soliq to'lovchining moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish bilan bog'liq bo'lmagan, uning ayrim operatsiyalarining soliq to'g'risidagi qonunchilikka muvofiqligini tekshirish ekanligi belgilandi.

2007-yildagi Soliq kodeksida tekshiruvlar rejali soliq tekshiruv, rejadan tashqari soliq tekshiruv va muqobil soliq tekshiruv usulida amalga oshirilishi belgilandi. Unga ko'ra, moliya-xo'jalik faoliyatining rejali soliq tekshiruv (taftish) tekshiruvlar bo'yicha muvofiqlashtiruvchi maxsus vakolatli organ tomonidan tasdiqlangan reja asosida o'tkaziladigan tekshiruv ekanligi; moliya-xo'jalik faoliyatining rejadan tashqari soliq tekshiruv (taftish) yuridik shaxs tugatilayotganda, hukumatning qarorlari asosida, soliq organiga soliq qonunchiligi soliq to'lovchi tomonidan buzilganligi haqida qo'shimcha ma'lumotlar tushganda o'tkazilishi belgilandi, shuningdek, muqobil soliq tekshiruv – operatsiyalar

birligi tufayli o'zaro bog'langan va turli soliq to'lovchilarda bo'lgan hujjatlarni taqqoslashdan iborat tekshiruv shaklida o'tkazilishi qayd etildi. Ushbu davrda soliq tekshiruvlari instituti Soliq kodeksida alohida bob sifatida mustahkamlandi, shuningdek, soliq tekshiruvini rejali va rejadan tashqari o'tkazish tartibi, asoslari va soliq tekshiruvining asosiy kategoriyalari belgilandi.

Beshinchi bosqich – 2016–2019-yillar. Ushbu davrda 2016-yil 5-oktabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlantirishini ta'minlashga, xususiyl mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-4848-sonli Farmoni qabul qilindi. Farmonga binoan, 2017-yil 1-yanvardan boshlab tadbirkorlik subyektlarini rejadan tashqari tekshirishlarning barcha turlari bekor qilindi. Rejadan tashqari tekshirishlar faqatgina yuridik shaxslar tugatilayotganida, shuningdek, jismoniy va yuridik shaxslarning qonunchilik buzilganligi holatlari bo'yicha bergan murojaatlari asosida muvofiqlashtiruvchi respublika kengashi qaroriga muvofiq o'tkaziladigan qisqa muddatli tekshiruvlarga nisbatan tatbiq qilinmasligi belgilandi. Shuningdek, tadbirkorlik subyektlari faoliyati, shu jumladan, jinoyat ishlari doirasidagi muqobil tekshirishlarning barcha turlari bekor qilindi.

2018-yil 24-dekabrda Soliq kodeksining (2007) 86-moddasiga o'zgartirish kiritilib, soliq tekshiruvlari quyidagi turlarga bo'linishi belgilandi: 1) tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini vakolatli organ bilan kelishuvga ko'ra tekshirish; 2) tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini vakolatli organi xabardor qilish tartibida tekshirish.

2018-yil 27-iyulda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniyl manfaatlarini himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PF-5490-sonli Farmoni qabul qilindi. Ushbu farmonga ko'ra, tadbirkorlik

subyektlarining moliya-xo'jalik faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan rejali tekshiruvlar va tadbirkorlik subyektlari faoliyatida o'tkaziladigan nazorat tartibidagi tekshiruvlar bekor qilindi. Shuningdek, tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tekshirish tashabbusi bilan chiqish tegishli tadbirkorlik subyektlari tomonidan qonunbuzarlik sodir etish xavfi darajasi, ya'ni "xavfni tahlil etish" tizimi natijalari asosida amalga oshirilishi; barcha tekshiruvlar Tekshiruvlarni elektron ro'yxatga olish yagona tizimida ro'yxatga olinishi shartligi va mazkur yagona tizimda ro'yxatga olinmagan tekshiruvlar noqonuniyl hisoblanishi belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 15-martda qabul qilgan "Tadbirkorlik faoliyatini himoya qilish tizimini tubdan takomillashtirish va prokuratura organlari faoliyatini optimallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5690-sonli Farmoniga ko'ra, 2019-yil 1-apreldan boshlab tadbirkorlik subyektlari faoliyatida o'tkaziladigan tekshiruvlarni muvofiqlashtirish prokuratura organlari vakolatlaridan olinib, Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniyl manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (biznes ombudsman) zimmasiga yuklatildi. Shuningdek, 2018-yil 22-yanvardagi "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF-5308-sonli Farmon bilan tadbirkorlik subyektlarining moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirishga ikki yil muddatga moratoriy e'lon qilindi. Ushbu davrda rejali va rejadan tashqari tekshiruvlar tushunchalari o'z ahamiyatini yo'qotdi. Muqobil va nazorat tartibidagi tekshiruv turlari bekor bo'ldi. Shuningdek, nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi organ dastlab prokuratura organlariga, so'ngra Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniyl manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil zimmasiga yuklatildi hamda tadbirkorlik subyektlarining moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirishga moratoriy e'lon qilindi.

Oltinchi bosqich – 2019-yildan hozirga qadar bo'lgan davrni qamrab oladi. Ushbu davrda soliq tekshiruvlari bo'yicha qonunchilik takomillashdi. Xususan, 2019-yil 30-dekabrda yangi tahrirdagi Soliq kodeksi qabul qilinib, unda soliq tekshiruvlarining uchta turi belgilandi. Mazkur asoslardan kelib chiqqan holda, "Kameral soliq tekshiruvini o'tkazish to'g'risida"gi nizom, "Sayyor soliq tekshiruvini o'tkazish tartibi to'g'risida"gi nizom hamda "Soliq auditini o'tkazish to'g'risida"gi nizom qabul qilindi. Mazkur nizomlarni jamlagan holda Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 7-yanvardagi 1-sonli qarori bilan "Soliq xavfini boshqarish, soliq xavfi mavjud soliq to'lovchilarni (soliq agentlarini) aniqlash va ularni soliq xavfi darajasi bo'yicha toifalash tartibi to'g'risida"gi nizom hamda "Soliq tekshiruvlarini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risida"gi nizomlar tasdiqlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-iyuldagi "Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-4389-sonli qarorga ko'ra, 2020-yil 1-yanvardan boshlab Yagona axborot tizimidan foydalanuvchi tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy-xo'jalik faoliyati ushbu dasturiy mahsulotni qo'llagan davrda tekshirilmasligi qayd etildi.

2020-yil 19-martdagi "Koronavirus pandemiyasi va global inqiroz holatlarining iqtisodiyot tarmoqlariga salbiy ta'sirini yumshatish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5969-sonli Farmonga asosan, 2021-yil 1-yanvarga qadar tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini soliq auditidan o'tkazish to'xtatildi. 2020-yil 30-oktabrdagi "Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6098-sonli Farmon esa soliq organlari tomonidan soliq audit hamda sayyor soliq tekshiruvlari Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakilni xabar-

dor qilgan holda amalga oshirilishini belgilab qo'ydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston – 2030" strategiyasiga muvofiq, fiskal barqarorlikni ta'minlash va davlat majburiyatlarini samarali boshqarish yo'nalishida konsolidatsiyalashgan budjet taqchilligini 2024-yilda yalpi ichki mahsulotga nisbatan 4 foizdan va kelgusi yillarda 3 foizdan past bo'lgan miqdorda bo'lishini ta'minlash, yashirin iqtisodiyotni qisqartirish orqali soliq bazasini qo'shimcha kengaytirish imkoniyatidan foydalanish asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan.

Tadqiqot natijalari tahlili

Soliq huquqi instituti sifatida soliq tekshiruvlari o'z maqsadidan kelib chiqib, bir qator vazifalarni bajaradi, masalan, uning eng muhim vazifasi soliqlarni (yig'im) o'z vaqtida va to'liq undirishni ta'minlashdir. Soliq tekshiruvining vazifasi tekshiruv maqsadiga erishish uchun amalga oshirilishi lozim bo'lgan doimiy harakatlar hisoblanadi. Bu masalaga olimlar turlicha yondashadilar.

Xususan, S. Shornikovning fikricha, soliq tekshiruvining quyidagi vazifalari mavjud: soliq va yig'imlarni to'g'ri hisoblash hamda o'z vaqtida to'liq to'lanishini ta'minlash; soliq solish sohasida huquqbuzarliklarni aniqlash va bartaraf etish hamda ularni kelajakda sodir etilishining oldini olish; soliq solish sohasida huquqbuzarliklarni keltirib chiqaruvchi sabablarni aniqlash va bartaraf etish; soliq solish sohasida huquqiy tartibga solishdagi kamchiliklarni aniqlash va bartaraf etish; soliq huquqiy munosabat ishtirokchilari tomonidan soliq qonunchiligini bajarish darajasini aniqlash va uni oshirish [1, 15-b.].

Fikrimizcha, mazkur masala bo'yicha olimning fikrlari to'liq va keng qamrovliligi bilan ajralib turadi. Biroq soliq tekshiruvi vazifalaridan eng asosiysi noto'g'ri hisoblangan va to'lanmagan soliqlarni aniqlash, mazkur summani budjetga undirish hisoblanishini qayd etish joiz.

Iqtisodchi olim M. Alimardonov soliq va yig'implarni o'z vaqtida, belgilangan hajmda yig'ilishini ta'minlash yo'li bilan davlat budjeti daromadlarini shakllantirishni soliq tekshiruvining vazifasi, deb ta'kidlaydi [2, 2-b.]. Olimning fikrini qo'llab-quvvatlaymiz. Zero, soliq tekshiruvlari orqali budjetga to'lanmagan soliqlar qo'shimcha undiriladi.

V. Gruzdevaning fikricha, soliq tekshiruvining vazifalari soliq to'lovchilarning (soliq agentlari) o'z vazifalarini bajarmasliklari natijasida davlatga yetkazilgan zararini qoplashni ta'minlash va soliq huquqbuzarliklarining oldini olishdan iborat [3, 7-b.]. Darhaqiqat, soliq huquqbuzarliklarining oldini olish orqali kelajakda sodir etilishi mumkin bo'lgan huquqbuzarlik va soliq zarari bartaraf etiladi.

Yuqoridagi fikrlardan farqli ravishda, V. Panskov soliq tekshiruvini soliq organlarining vazifalari bilan bog'lab, uchta asosiy yo'nalishini sanaydi: 1) soliq tushumlari hisobidan budjet daromadlarini ta'minlash; 2) soliq intizomini yuqori darajada saqlab turish uchun shart-sharoit yaratish; 3) davlat iqtisodiyoti va biznesining rivojlanishini ta'minlovchi soliq muhitini saqlash [4, 31-b.].

Biroq M. Chuklaykinaning qayd etishicha, soliq tekshiruvining vazifasi soliq huquqbuzarliklari va jinoyatlarining oldini olish, soliq qonunchiligiga zid bo'lgan holatlarni aniqlash, insofsiz soliq to'lovchilarni javobgarlikka tortish hisoblanadi [5, 58-b.]. Y. Slesarova esa soliq tekshiruvining asosiy vazifasi soliqlarning to'g'ri va to'liq hisoblanishi hamda budjetga to'liq tushishini ta'minlash, soliq qonunchiligini buzgan shaxslarga javobgarlik muqarrarligini ta'minlash, soliq qonunchiligi buzilishi to'g'risida ogohlantirish, davlatga yetkazilgan zararni undirish ekanini qayd etadi [6, 86-b.].

O. Chugunova ham yuqoridagilarga o'xshash fikrni keltirib, soliq tekshiruvining vazifasi soliq qonunchiligini buzgan huquqbuzarni javobgarlikka tortish, soliqlarning to'g'ri hisoblanishi, to'liq va o'z va-

qtida budjetga tushishini ta'minlash, soliq qonunchiligi buzilishi to'g'risida ogohlantirish hamda soliq to'lovchi tomonidan o'z majburiyatlari bajarilmasligi natijasida yetkazilgan zararni undirish deb hisoblaydi [7, 454–457-b.].

Olimlarning fikrlariga qisman qo'shilish mumkin, sababi tekshiruvning dastlabki vazifasi javobgarlikka tortish emas, balki to'lanmagan soliqlarni qo'shimcha undirishdir.

Soliq tekshiruvlarining mazmun-mohiyatini ochib berishda uning prinsiplari muhim o'rin tutadi. Shu bois soliq tekshiruvlari prinsiplariga to'xtalib o'tsak. Amaldagi Soliq kodeksining 7-moddasida soliq solish prinsiplari sifatida soliq solishning majburiyligi, aniqlik, soliq organlarining soliq to'lovchilar bilan hamkorligi, adolatlilik, soliq tizimining yagonaligi, oshkoralik va soliq to'lovchining haqligi prezumpsiyasi keltirilgan. Bundan tashqari, "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to'g'risida"gi Qonunga ko'ra, xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilishning asosiy prinsiplari sifatida nazorat qiluvchi organlar faoliyatida qonuniylik, xolislik, oshkoralik; yuridik va jismoniy shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish; xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyatiga aralashmaslik; tadbirkorlik subyektlari huquqlarining ustuvorligi, ya'ni qonun hujjatlarida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq holda yuzaga keladigan, bartaraf etib bo'lmaydigan barcha ziddiyatlar hamda noaniqliklar tadbirkorlik subyektining foydasiga talqin etilishi belgilangan.

Fikrimizcha, yuqorida keltirilgan prinsiplardan, xususan, moddiy prinsiplar sifatida: qonuniylik, oshkoralik, xolislik; protsessual prinsiplar sifatida: soliq organlarining soliq to'lovchilar bilan hamkorligi, soliq to'lovchining haqligi prezumpsiyasi, yuridik va jismoniy shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish; xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyatiga aralash-

maslik; tadbirkorlik subyekti huquqlarining ustuvorligi soliq organi va soliq to'lovchi o'rtasidagi munosabatlarning asosiy mazmuni tartibga solishga qaratilgan prinsiplarga taalluqli. Masalan, Germaniya Soliq kodeksiga ko'ra, soliq prinsiplari soliq solish va tekshiruv prinsiplariga bo'linadi. Xususan, qonuniylik; iqtisodiy samaradorlik; bosqichlilik, maqsadga muvofiqlik; soliq ma'muriyatchiligining iqtisodiy samaradorligi; soliqlarni yagona tartibda hisoblash va undirish prinsipi – soliq organlari tomonidan soliqlar pasaytirilishi yoki adolatsiz undirilishi hamda soliq qaytarma va siylovlari noto'g'ri taqdim etilishi yoki rad etilishining oldi olinishini ta'minlash; soliq to'lovchiga foydali yoki zararli bo'lishidan qat'i nazar, tekshiruv jarayonlarida soliq majburiyatlari bo'yicha faktik va huquqiy holatlarni ko'rib chiqish prinsiplari shular jumlasidandir [8, 321-b.].

Ruminiyada soliqqa oid huquqiy munosabatlarning moddiy huquq normalari Soliq kodeksi bilan hamda protsessual normalari Soliq protsessual kodeksi bilan tartibga solinadi. Soliq protsessual kodeksiga ko'ra soliq tekshiruvlari quyidagi prinsiplarga asoslanadi: mustaqillik, yagonalik, iyerarxik yondashuv, hududiylik, normakazlashganlik va soliq to'lovchilarning faoliyatiga minimal aralashish va tekshirish vaqtidan samarali foydalanish [9, 76-b.].

Yevropa va Osiyodagi ko'plab mamlakatlar korporativ boshqaruv uchun Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT) tamoyillarini qabul qildilar va ba'zi mamlakatlar o'zlarining huquqiy tizimini IHTT tamoyillari bilan moslashtirdilar. Jumladan, soliq ma'muriyatchiligiga xos bo'lgan tamoyillar ham shu asosda xalqaro standartlarga aylandi [10, 15-b.].

Umuman olganda, huquq prinsiplari (tamoyillari) – huquqning ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy qarash, g'oya va qoidalari hisoblanadi [11, 108-b.]. Sodda-roq aytganda, huquq prinsiplari asosiy qoidalar bo'lib, nazariya, qonunchilik va amaliyot-

da ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda mayoq vazifasini o'taydi. Bu borada olimlarning yondashuvlari turlicha.

O. Turchinaning tahliliga ko'ra, soliq nazorati umumhuquq prinsiplari asosida (qonuniylik, yuridik tenglik, inson va fuqaro tengligiga rioya qilish, javobgarlik), soliq huquqi prinsiplari (insofli soliq to'lovchi, obyektivlik, hujjatlashtirish, soliq siriga rioya etish, javobgarlikka differensial yondashish) va institutsional prinsiplar (soliq nazorati shakllarining aniqligi, tadbirkorlik faoliyatiga aralashmaslik, soliq nazoratini amalga oshirish muddatining chegaralanganligi) asosida amalga oshiriladi [12, 10-b.].

Fikrimizcha, ushbu olimning prinsiplarni to'liq va tizimli ifodalagani diqqatga sazovor. Shuningdek, u soliq tekshiruvlari qonun hujjatlarida belgilangan asoslarga ko'ra faqatgina vakolatli shaxs tomonidan o'tkazilishi lozimligini qayd etib, qonuniylik prinsipi bir lamchi ekanini ta'kidlaydi. Mazkur masala amaldagi Soliq kodeksida hech kimga soliqlar va yig'implarning barcha alomatlariga ega bo'lgan, lekin Soliq kodeksida belgilanmagan soliqlar va yig'implarni to'lash majburiyati yuklatilishi mumkin emasligi prinsipi sifatida belgilangan.

D. Saydullayevning fikriga ko'ra, huquqiy vakolatlilik, to'liqlik, umumiylik, doimiylik, birlik, soliq siriga rioya etish, obyektivlik va ishonchlilik soliq nazoratining prinsiplari hisoblanadi [13, 65-b.]. Mazkur olim obyektivlik prinsipini soliq organining o'z xizmat vazifasini hech bir manfaatlarsiz, xolis bajarishi deb qayd etadi.

Yuqoridagi yondashuvlardan farqli ravishda, M. Suvorov soliq tekshiruvini o'tkazish prinsiplarini quyidagicha talqin qiladi. Xususan, soliq to'lovchining huquq va manfaatlari ustunligini ta'minlovchi prinsiplarga qonuniylik, yuridik tenglik, soliq to'lovchilarning huquq va manfaatlari ustunligi, oshkoralik, soliq siriga rioya qilish, soliq tekshiruvlari o'tkazishda mansabdor shaxsning noqonuniy harakati natijasida yetka-

zilgan zararni qoplash, insofli soliq to'lovchi prezumpsiyasini; soliq tekshiruvining ratsional va samarali o'tkazilishini ta'minlovchi moddiy-huquqiy prinsiplarga: javobgarlik, mustaqillik, obyektivlik va ishonchlilik, soliq nazoratining umumiyligi, soliq nazoratining birligi (yagonaligi), soliq nazoratining hududiyiligi; soliq tekshiruvining ratsional va samarali o'tkazilishini ta'minlovchi protsessual prinsiplarga esa rejalashtirish, nazoratning doimiyligi, nazorat natijalarini hujjatli rasmiylashtirish, boshqa davlat organlari bilan o'zaro hamkorlik va axborot almashish, soliq nazoratining chegaralanganligini kiritadi [14, 142-b.].

Ushbu olimning prinsiplarni tasniflashdagi yondashuviga to'liq qo'shilamiz. Shu o'rinda soliq tekshiruvi moddiy va protsessual normalar bilan tartibga solinishini hisobga olib, prinsiplarni tahlil qilishda differensial yondashish lozimligini qayd etamiz.

L. Nani esa soliq soluvchi va soliq to'lovchi o'rtasidagi soliq munosabatlarida muvozanat saqlanishini ta'minlovchi huquqiy tartibga solish prinsiplari sifatida qonuniylik, aniqlik (oldindan aytish mumkin bo'lgan), soliq to'lovchining insofiligi, proporsional va samarali prinsiplarni sanab o'tadi [15, 90-b.]. Bu fikrlarga qo'shilgan holda olim aniqlik prinsipini to'g'ri talqin etganini ta'kidlash o'rinli. Soliq tekshiruvlari qachon va qaysi davriylikda o'tkazilishi to'g'risida soliq to'lovchi aniq tasavvurga ega bo'lishi lozimligini va mazkur prinsip ochiqlik, shaffoflik hamda oshkoralik prinsiplari bilan chambarchas bog'liqligini qayd etish lozim. Xususan, 2007-yildagi Soliq kodeksining 90-moddasiga ko'ra, xususiy bank va boshqa xususiy moliya institutlari moliya-xo'jalik faoliyati us-tidan rejali soliq tekshiruvlari 5 yilda ko'pi bilan 1 marta, mikrofirmalar, kichik korxonalar va fermer xo'jaliklarining rejali soliq tekshiruvlari 4 yilda ko'pi bilan 1 marta, boshqa tadbirkorlik subyektlarining rejali soliq tekshiruvlari 3 yilda ko'pi bilan 1 marta amalga oshirilishi belgilangan edi.

Bu borada A. Sviliy-Buklanova soliq nazoratining qonuniylik, oshkoralik, soliq siriga rioya qilish, obyektivlik, ishonchlilik, iqtisodiy maqsadga muvofiqlik, samaradorlik, soliq to'lovchining aybsizlik prezumpsiyasi, soliq huquqbuzarliklarining oldini olish, soliq organlari harakatlarini boshqa organlar bilan muvofiqlashtirish va kelishish kabi prinsiplarini keltirib o'tadi [16, 23-b.].

Shunday bo'lishiga qaramasdan, Y. Mixaseyeva soliq nazoratining prinsiplarini aybsizlik prezumpsiyasi, soliq siriga rioya qilish, soliq va boshqa organlarning o'zaro hamkorligi sifatida qayd etadi [17, 9-b.].

Bu borada amaldagi Soliq kodeksida hamkorlik doirasida soliq organlari soliq to'lovchilarning qonuniy faoliyatiga asossiz to'siqlar yaratishga haqli emasligi, soliq to'lovchilar esa soliq organlari o'z vakolatlarini amalga oshirishi uchun shart-sharoit yaratishi kerakligi qayd etilgan.

Bir guruh olimlar I. Payzullayev [18, 19-20-b.], T. Kurbatov [19, 86-87-b.] va A. Selivanovlar [20, 38-40-b.] soliq tekshiruvlari prinsiplarini quyidagicha:

- umumhuquqiy prinsiplar – qonuniylik, soliq nazorati subyektlarining tengligi, inson va fuqarolar huquqlariga rioya qilish, oshkoralik, soliq nazorati subyektlari javobgarligi, soliq to'lovchilar huquqlarini himoya qilish prinsiplari;

- maxsus prinsiplar – korrupsiyadan xolilik, mustaqillik, nazorat faoliyatini rejalashtirish, nazoratning doimiyligi, nazorat faoliyatining ishonchliligi va obyektivligi, nazorat natijalarini hujjatli rejalashtirish, boshqa davlat organlari bilan axborot almashinuvi va o'zaro hamkorlik prinsiplari;

- qo'shimcha prinsiplar – soliq nazoratining umumiyligi, soliq nazoratining birligi, soliq nazoratining hududiyiligi, qonunda ko'rsatilgan holatda soliq nazoratining cheklanganligi, soliq to'lovchilarning insofiligi, soliq siriga rioya qilish, soliq nazorati tadbirida mansabdor shaxsning noqonuniy harakati natijasida yetkazilgan zararni qoplash sifatida tasniflaydi.

Shu o'rinda qayd etish kerakki, yuqorida keltirilgan prinsiplardan korrupsiyadan xolilik prinsipi dolzarbdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-iyuldagi PQ-4389-sonli qarori bilan tasdiqlangan Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish strategiyasini amalga oshirish bo'yicha yo'l xaritasining 34-bandida mamlakatimizda bu borada sayyor soliq tekshiruvlarini kamaytirish va soliq organlarining soliq to'lovchilar bilan o'zaro hamkorligining simsiz usullari ro'yxatini kengaytirgan holda soliq nazorati shakllarini takomillashtirish alohida vazifa sifatida belgilangan.

Umuman olganda, soliq tekshiruvlari prinsiplari o'zida soliq huquqi, soliq ma'muriyatchiligi va soliq nazorati prinsiplarini jamlaydi. Mazkur prinsiplar soliq tekshiruvlarini qonuniy o'tkazish hamda davlat va fuqarolarning manfaatlarini himoya qilishning asosiy qoidalarini hisoblanadi.

Xulosalar

Yuqoridagilardan kelib chiqib, aytish mumkinki, soliq tekshiruvi vazifasi – soliqlardan bo'yin tovlash holatlarini aniqlash, to'lanmagan soliq va yig'implarning miqdorini budjet tizimiga undirish, soliq huquqbuzarliklarining oldini olish va huquqbuzarlik sodir etgan shaxsni javobgarlikka tortish hamda soliq qonunchiligiga rioya qilish muhitini yaratish hisoblanadi. Soliq tekshiruvi prinsiplariga kelsak, ular soliq tekshiruvlarini tashkil etish, o'tkazish va natijalarini rasmiylashtirish jarayonlarini tartibga soluvchi qonunchilik normalarining asosiy qoidalarini hisoblanadi, deyish mumkin. Soliq tekshiruvi prinsiplari asosiy ikki guruhga tasniflandi:

moddiy-huquqiy prinsiplar: qonuniylik, shaffoflik, korrupsiyadan xolilik, oshkoralik, obyektivlik, ochiqlik, tekshiruv tizimining yagonaligi va aniqligi, tekshiruvning hududiyligi;

protsessual-huquqiy prinsiplar: soliq sirini saqlash, soliq to'lovchining aybsizlik prezumpsiyasi, soliq organining mustaqilligi, iqtisodiy natijadorlik va samaradorlik, soliq

to'lovchi bilan hamkorlik, soliq to'lovchilarining huquq va manfaatlarini ustunligi, soliq tekshiruvlari o'tkazishda mansabdor shaxsning noqonuniy harakati natijasida yetkazilgan zararni qoplash, javobgarlikka tortishdan oldin preventiv choralarini qo'llash.

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, soliq tekshiruvlarining yuridik tabiatini to'g'ri tushinishda soliq tekshiruvi vazifasi va prinsiplari asosiy element sifatida namoyon bo'ladi. Shuningdek, soliq tekshiruvlari jarayonlarida qonuniylikni ta'minlashda soliq organi va soliq to'lovchi o'rtasida ikkala tomon uchun ham muhim bo'lgan qoidalar – prinsiplarni belgilash va ularga rioya qilish asosiy faktor hisoblanishini qayd etish lozim.

Demak, soliq tekshiruvlari to'g'risidagi qonunchilik bosqichlarini shunday davrlarga ajratish mumkin: birinchidan, 1990–1994-yillarda O'zbekiston Respublikasida soliq tekshiruvi o'tkazishga vakolatli soliq organlari tizimi yuzaga keldi. Dastlab ushbu organ Moliya vazirligi huzurida tashkil etildi, so'ngra Vazirlar Mahkamasi huzuriga o'tkazildi hamda soliqlarning har bir turi bo'yicha alohida qonunlar qabul qilindi; ikkinchidan, 1994–1997-yillarda soliq tekshiruvlari o'tkazishga vakolatli alohida davlat organi tizimi – Soliq qo'mitasi tashkil etildi hamda soliq tekshiruvlarining takror va noqonuniy o'tkazilishining oldini olish maqsadida muvofiqlashtiruvchi kengash faoliyati yo'lga qo'yildi; uchinchidan, 1997–2007-yillarda O'zbekiston Respublikasida alohida qabul qilingan soliq qonunlarini o'zida kodifikatsiya qilgan Soliq kodeksi qabul qilindi, shuningdek, Davlat bojxona qo'mitasi Davlat soliq qo'mitasi tarkibidan ajralib chiqdi. Soliq organlarining soliq nazoratini amalga oshirish shakllari va usullarini belgilab beruvchi "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. Bundan tashqari, tekshirishlarning turlari va tavsifi "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to'g'risida"gi Qonun bilan belgilandi; to'rtinchidan, 2007–2016-yillarda

O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Soliq kodeksi qabul qilindi. Unda soliq tekshiruv tushunchasi, shakli (moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish va qisqa muddatli tekshirish) hamda turlari (rejali, rejadan tashqari va muqobil tekshiruv), soliq tekshiruvlarining protsessual tartibi belgilandi; beshinchidan, 2016–2019-yillarda muqobil va nazorat soliq tekshiruv turlari bekor qilindi hamda soliq tekshiruv turlariga o'zgartirish kiritildi. Xususan rejali, rejadan tashqari va muqobil soliq tekshiruv turlari o'rniga tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini tekshirishni muvofiqlashtirish bo'yicha vakolatli organ bilan kelishuvga ko'ra va xabardor qilish tartibidagi soliq tekshiruv turlari joriy qilindi.

Shuningdek, 2017-yilda soliq tekshiruvlarini o'tkazishni kechiktirish bo'yicha 2 yillik moratoriy e'lon qilindi, soliq tekshiruvlarni elektron ro'yxatga olish va soliq tekshiruvlarini avtomatlashtirish "risk-tahlil" dasturini joriy etishning dastlabki huquqiy asoslari yaratildi; oltinchidan, 2019-yil 30-dekabrda O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Soliq kodeksi qabul qilindi. Ushbu kodeksda soliq tekshiruv faqat soliq organi tomonidan o'tkazilishi, soliq tekshiruv turlari sifatida kameral, sayyor va soliq auditi belgilandi hamda soliq tekshiruv shakllari o'z ahamiyatini yo'qotdi. Shuningdek, ushbu davrda soliq auditi 2021-yilga qadar o'tkazilishi taqiqlandi.

REFERENCES

1. Shornikov S.A. Teoretiko-pravovyye osnovy osushchestvleniya nalogovykh proverok v Rossiyskoy Federatsii [Theoretical and legal foundations of tax audits in the Russian Federation]. Abstract of PhD thesis. Moscow, 2008, p. 15.
2. Alimardonov M.I. Soliq tizimini isloh qilish sharoitida soliq nazoratining shakllari va uni takomillashtirish yo'llari [Forms of tax control in conditions of tax system reform and ways of its improvement]. *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar – Economy and Innovative Technologies*, 2012, March, no. 3, p. 2.
3. Gruzdeva V.G. Metodicheskiye aspekty kompleksnoy otsenki effektivnosti osnovnykh form nalogovogo kontrolya [Methodological aspects of a comprehensive assessment of the effectiveness of the main forms of tax control]. Abstract of PhD thesis. Nizhny Novgorod, 2010, p. 7.
4. Panskov V.G. Novyye podkhody k teorii i praktike nalogovogo administrirovaniya [New approaches to the theory and practice of tax administration]. *International Accounting*, 2014, vol. 10 (304), p. 31.
5. Chuklaykina M.N. Sushchnost' i ponyatiye nalogovogo kontrolya [The essence and concept of tax control]. *Journal of Economics*, 2014, no. 3, p. 58.
6. Slesaryova Y.Y. Soderzhaniye nalogovogo kontrolya i yego mesto v sisteme nalogovogo administrirovaniya [The content of tax control and its place in the tax administration system]. *Economics and Law Issues*, 2011, no. 9, p. 86. Available at: https://law-journal.ru/files/pdf/201109/201109_148.pdf
7. Chugunova O.A. Nalogovyy kontrol' kak funktsiya nalogovogo organa [Tax control as a function of the tax authority]. Current directions of scientific research: from theory to practice. Proceedings of the International scientific-practical conference. Cheboksary, Interaktiv plyus Publ., 2015, pp. 454–457.
8. Fiscal Code of Germany in the version promulgated on 1 October 2002, last amended by Article 17 of the Act of 17 July 2017. *Bundesgesetzblatt – Federal Law Gazette*, 2003, no. 1, pp. 3866, 61, 2541.
9. Fiscal Procedure Code of Romania. *Official Gazette of Romania*, 2007, July 31, no. 513, p. 76. Available at: https://static.anaf.ro/static/10/Anaf/legislatie/Cod_procedura_fiscalaEN.pdf

10. Skenderi D., Skenderi B. Understanding tax evasion and professionalism of tax administration in Kosovo. *IFAC PapersOnLine*, 2022, pp. 55–39. DOI: 10.1016/j.ifacol.2022.12.013. Available at: www.sciencedirect.com
11. Yusuvaliyeva R., Axmedshayeva M., Najimov M. et al. Davlat va huquq nazariyasi [Theory of state and law]. Ed. R. Yusuvaliyeva. Tashkent, UWED, 2019, 108 p.
12. Turchina O.V. Pravovoye regulirovaniye nalogovogo kontrolya v Rossiyskoy Federatsii i puti sovershenstvovaniya [Legal regulation of tax control in the Russian Federation and ways of improvement]. Abstract of PhD thesis. Moscow, 2009, p. 10.
13. Saydullayev D.D. Sushchnost' nalogovogo kontrolya i osnovnyye printsipy yego osushchestvleniya [The essence of tax control and the basic principles of its implementation]. *Journal of Economy and Business*, 2018, vol. 11 (2), p. 65.
14. Suvorov M.A. Pravovyye printsipy provedeniya nalogovykh proverok [Legal principles for conducting tax audits]. *Izvestiya of Tomsk Polytechnical University*, 2003, vol. 306, no. 2, p. 142.
15. Nani L. Printsipy regulirovaniya nalogovykh otnosheniy v Rumynii [Principles for regulating tax relations in Romania]. *Russian Journal of Legal Studies*, 2018, vol. 4 (17), p. 90.
16. Sviliy-Buklanova A.A. Nalogovyy kontrol' v sisteme obespecheniya nalogovoy bezopasnosti gosudarstva [Tax control in the system of ensuring tax security of the state]. Abstract of PhD thesis. Chelyabinsk, 2011, p. 23.
17. Mikhaseyeva Y.N. Organizatsiya i metodika provedeniya nalogovykh proverok [Organization and methodology of tax audits]. Volgograd, Volgograd Institute of Management Publ., 2017, p. 9.
18. Payzullayev I.R. Stanovleniye i razvitiye sistemy nalogovogo administrirovaniya v Rossiyskoy Federatsii (voprosy teorii i praktiki) [Formation and development of the tax administration system in the Russian Federation (issues of theory and practice)]. Abstract of PhD thesis. Moscow, 2012, pp. 19–20.
19. Kurbatov T.Y. Pravovyye formy i metody nalogovogo kontrolya [Legal forms and methods of tax control]. PhD thesis. Moscow, 2015, pp. 86–87.
20. Selivanov A.S. Finansovo-pravovoye regulirovaniye form nalogovogo kontrolya v Rossiyskoy Federatsii [Financial and legal regulation of forms of tax control in the Russian Federation]. PhD thesis. Moscow, 2012, pp. 38–40.

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2024-YIL 2-SON

VOLUME 4 / ISSUE 2 / 2024

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.4.2.

BOSH MUHARRIR:

Xodjayev Baxshillo Kamolovich

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, professor, yuridik fanlar doktori

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

J. Allayorov

Ilmiy boshqarma boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Mas'ul muharrir: N. Ramazonov

Muharrirlar: Sh. Jahonov, Y. Mahmudov, M. Sharifova,
Y. Yarmolik, E. Mustafayev

Musahhih: K. Abduvaliyeva

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

Tel.: (0371) 233-66-36, 233-41-09.

Faks: (0371) 233-37-48.

Veb-sayt: www.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1387.

Jurnal 23.04.2024-yilda tipografiyaga topshirildi.

Qog'oz bichimi: A4. Shartli bosma tabog'i 13,5.

Adadi: 100. Buyurtma raqami: 50.

TDYU tipografiyasida chop etildi.